| <b>Tursunov Zohidxo'ja Orifovich</b>                                                                                                                              |     |
| Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklar faoliyatini statistik tadqiq etish xususiyatlari .....                                                | 412 |
| <b>Kutliyev Dilshod Orifovich</b>                                                                                                                                 |     |
| O'zbekistonda suv tanqisligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishgata'siri .....                                                                                    | 419 |
| <b>Maxmudov Nosir Maxmudovich, Alimova Guzal Alisherovna</b>                                                                                                      |     |
| O'zbekistonda yashil iqtisodiyotning kelajak istiqbollari .....                                                                                                   | 424 |
| <b>Egamberdiyev Humoyun</b>                                                                                                                                       |     |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilishning holati hamda rivojlanish istiqbollari (namangan viloyati misolida) .....                        | 433 |
| <b>Jo'raboieva Shohida Kamoliddin qizi</b>                                                                                                                        |     |
| Kichik korxonalarni rivojlantirishdagi muammolari va ularning yechimlari .....                                                                                    | 439 |
| <b>Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna</b>                                                                                      |     |
| Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi .....                                                                                   | 422 |
| <b>Xaydarova Charos Nizomiddin qizi</b>                                                                                                                           |     |
| Namangan viloyati kichik biznes subyektlari faoliyatida real investitsiyalarning samaradorligini ekonometrik baholash .....                                       | 448 |
| <b>E.S.Jurayev</b>                                                                                                                                                |     |
| Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida investitsiyalar ko'rsatkichi tahlili (Sirdaryo viloyati misolida) .....                                                       | 454 |
| <b>Karimqulov Jasur Imomboyevich, Alimova Dilafruz Tohir qizi, Qurbonova Shahnoza Yuldashbayevna</b>                                                              |     |
| Fiskal avtomatik stabilizatorlarning iqtisodiyotga ta'siri .....                                                                                                  | 462 |
| <b>Madaminova Maftuna</b>                                                                                                                                         |     |
| "Yoshlar daftari"ning yuritish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari .....                                                                                     | 467 |
| <b>Turaeva Laylo Toshpulotovna</b>                                                                                                                                |     |
| O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga sarmoya kiritishning hozirgi holati va istiqbollari: barqaror rivojlanish sari .....                                           | 470 |
| <b>Malikov Nu'monjon Kamalovich</b>                                                                                                                               |     |
| Korxonalarda innovatsion funksiyalardan samarali foydalanish yo'llari .....                                                                                       | 474 |
| <b>Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li</b>                                                                                                                       |     |
| Davlat banklarining rivojlanish vektori – aholini tadbirkorlikka jalb qilish va mikroloiyahalarni moliyalashtirish (biznesni rivojlantirish banki misolida) ..... | 479 |
| <b>Radjabov Abdullaziz Atoevich</b>                                                                                                                               |     |
| Moliyaviy qarorlar qabul qilishda korporativ axborotlarning muhimligi .....                                                                                       | 483 |
| <b>Radjabova Dildora Atoevna</b>                                                                                                                                  |     |





|                                                                                                                           |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bank sohasida “Risklarni boshqarish” tushunchasining nazariy asoslari<br>va uning xizmatlar samaradorligiga ta’siri ..... | 486 |
| <b>Saidov Jasurbek Latipbaevich</b>                                                                                       |     |
| O‘zbekistonda qo‘shilgan qiymat solig‘ining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....                                            | 498 |
| <b>Babajanov Davronbek Jumamuratovich</b>                                                                                 |     |
| Foydali qazilmalarning nazorat ishlarini tashkil etgan xolda soliq bazasini<br>kengaytirish yo‘llari .....                | 505 |
| <b>Abduraxmanov Karomat Erkinovich</b>                                                                                    |     |
| Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning samaradorlikka ta’sirini baholash .....                                      | 511 |
| <b>Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna</b>                                                   |     |



# ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH VA UNING SAMARADORLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH

**Alimardonov Muxammadi Ibragimovich**

ISFT instituti professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Djalilova Malika Shuxratovna**

ISFT instituti xodimlar bo'limi boshlig'i

**Annotatsiya:** Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ichki auditning korporativ boshqaruvdagi rolining ortib borishi natijasida alohida tuzilma sifatida shakllanishi, jahon amaliyotida ichki audit biznesni himoya qilish, risklarni minimallashtirish va komplaens nazoratini amalga oshirishning muhim vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Shuni inobatga olgan holda, ushbu maqolada iqtisodiy rivojlangan davlatlar tajribasi va sohadagi ilmiy yutuqlar tahlil qilingan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me'yoriy hujjatlarni xalqaro talablarga uyg'unlashtirish, ichki audit institutining faoliyat samaradorligini oshirish, samarali boshqaruv tizimini shakllantirish va investorlarni jalb etishda ichki audit xizmatining biznes risklarini pasaytirishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallif yondashuvlari va takliflari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** xo'jalik yurituvchi subyektlar, budget tashkilotlari, audit, ichki audit, pul mablag'lari, nazorat, davlat budjeti, budget tizimi, moliyalashtirish, budget daromadlari, budget xarajatlari, mahalliy budget, soliq-budget siyosati.

**Abstract:** Nowadays, the growing role of internal audit in corporate governance, particularly in attracting foreign investments, has led to its establishment as a separate structure. In global practice, internal audit is being utilized as an essential tool for protecting businesses, minimizing risks, and conducting compliance control. Considering this, the article analyzes the experiences of economically developed countries and recent scientific achievements in the field. It explores the harmonization of regulatory documents governing internal audit activities in economic entities with international standards, improving the efficiency of internal audit institutions, forming an effective management system, and addressing existing challenges in reducing business risks through internal audit services, as well as the author's approaches and proposals to mitigate them.

**Key words:** economic entities, budget organizations, audit, internal audit, funds, control, state budget, budget system, financing, budget revenues, budget expenditures, local budget, fiscal policy.

**Аннотация:** В настоящее время растущая роль внутреннего аудита в корпоративном управлении, особенно в привлечении иностранных инвестиций, привела к его формированию как отдельной структуры. В мировой практике внутренний аудит используется как важный инструмент для защиты бизнеса, минимизации рисков и проведения комплаенс-контроля. Учитывая это, в статье анализируется опыт экономически развитых стран и научные достижения в этой области. Исследуется гармонизация нормативных документов, регулирующих деятельность внутреннего аудита в хозяйствующих субъектах, с международными требованиями, повышение эффективности института внутреннего аудита, формирование эффективной системы управления и существующие проблемы в снижении бизнес-рисков с помощью услуг внутреннего аудита, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

**Ключевые слова:** хозяйствующие субъекты, бюджетные организации, аудит, внутренний аудит, денежные средства, контроль, государственный бюджет, бюджетная система, финансирование, доходы бюджета, расходы бюджета, местный бюджет, налогово-бюджетная политика.

## KIRISH

Ma'lumki, har bir xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy maqsadi – faoliyat samaradorligiga erishish va yuqori foyda olish. Moliyaviy nazoratni amalga oshirish natijasida moliya tizimining har bir bo'g'inidagi holatni ob'ektiv aks ettiradigan ishonchli axborot olish imkoniyati yaratiladi. Moliyaviy nazorat orqali korxona rahbariyati samarali moliyaviy-xo'jalik boshqaruvini amalga oshira oladi, mulkdorlar esa ularning mulkini tasarruf etayotgan boshqaruvchilarning ishini nazorat qila oladi. Natijada iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hamda fuqarolarning shaxsiy mulki qo'shimcha kafolatlariga ega bo'ladi.



O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ichki auditning nazariy va huquqiy asoslari, ichki audit xizmatini tashkil etish mexanizmlarini xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirish hamda ichki audit samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida "xalqaro tajribani hisobga olgan holda korporativ huquqni rivojlantirish va korporativ boshqaruvning zamonaviy prinsiplarini joriy etish" [1] muhim vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta'minlash ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy tizimni xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish, xalqaro standartlar asosida ichki auditni tashkil etish va uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Ichki auditni dastlabki rivojlanish shakli ko'pchilikda zamonaviy ichki tekshiruvni, shuningdek, o'z ichiga buxgalteriya hisobini va xo'jalik operatsiyalarini baholashni to'g'ri o'rganishni eslatadi. Ichki auditning nisbatan zamonaviy shakli dastlab Amerika Qo'shma Shtatlarida yuzaga kelgan. 1789-yilda Kongressning birinchi chaqiruvi moliya vaziri, nazoratchi va auditor tayinlashni qo'llab-quvvatlagan. Alohida qayd etish kerakki, o'sha vaqtda buxgalteriya hisobi qo'lda yuritilishi munosabati bilan auditorlar xo'jalik operatsiyalari yozuvlarining to'g'riligini va xatolarni qayta tekshirish talab etilgan. Birinchi marotaba ichki audit bo'yicha yo'riqnoma 1875 yilda Germaniyaning yirik temir yo'l sanoat korxonasi "Ag Krupp" tomonidan qabul qilingan [2].

Ichki audit – ichki nazorat tizimining asosiy elementi sifatida buxgalteriya hisobini yuritishning o'rnatilgan tartibiga amal qilinishini ta'minlashga qaratilgan harakat sifatida bir qancha olimlarning qarashlari bir-biriga yaqinligini ko'rish mumkin. Jumladan, V.I. Podolskiy, A.A. Savina, L.V. Sotnikova "Ichki audit iqtisodiyot subyektida uning mulk egalari manfaatlarini ko'zlab tashkil etilgan va uning ichki hujjatlari bilan tartibga solingan buxgalteriya hisobini yuritishning o'rnatilgan tartibiga amal qilinishini va ichki nazorat tizimi faoliyati ishonchligini nazorat qiluvchi nazorat tizimi hisoblanadi" [3], deb fikr bildirgan.

D.V. Litvin ichki auditning xususiyatini quyidagicha ochib beradi: "Ichki audit – xo'jalik subyekti tomonidan tashkil etilgan va uning rahbari uchun amal qiladigan buxgalteriya hisobini yuritishning o'rnatilgan tartibiga mosligini nazorat qilish tizimidir" [4], deb e'tirof etgan.

A.V. Yevdokimova va I.N. Pashkina "Ichki audit – buxgalteriya hisobi va ichki nazoratni to'g'ri yuritishga javob beradigan tashkilotning ichida qo'llaniladigan nazorat tizimi" sifatida e'tirof etadi [5].

V. Bursev ichki auditga quyidagicha ta'rif bergan: "Ichki audit – bu xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya hujjatlari bilan boshqaruv organi va korxona mablag'lari harakatining nazorati bo'yicha boshqaruv kengashi va ijrochi organlarga ma'lumot berish borasida bajariladigan ishlardir" [6].

A. Bogomolova ichki audit xizmatini quyidagicha izohlagan: "Ichki audit – auditning asosiy qismidan iborat bo'lib, ta'sischilar huquqini ta'minlovchi xizmat hisoblanadi va uning faoliyati mol-mulkardan to'g'ri foydalanish va ichki nazoratning ishonchligini ta'minlashga qaratilgan" [7].

Z. Mamatovning fikricha, "Ichki auditorlar xo'jalik yurituvchi subyekt, firma, subyekt va shu kabilarning boshqaruv faoliyatini mustaqil ekspert sifatida baholaydi. Ular tahlil va baholash natijalarini, o'zlari tekshiradigan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati to'g'risidagi axborotlarni, o'z tavsiyalari va maslahatlarini boshqaruvni amalga oshirayotgan bosh firmaga taqdim etadilar" [8].

Bu borada professor A.A. Karimov tashqi va ichki auditning asosiy ikkita o'zaro farqli jihatini ta'kidlaydi: birinchidan, tashqi audit korxonaning moliyaviy hujjatlari to'g'riligini tasdiqlashga qaratilgan bo'lsa, ichki audit esa asosiy e'tiborni korxonaning mavjud nazorat tizimi va uning turli bo'linmalaridagi ishlab chiqarish, marketing, savdo-sotiq, moliya va hokazolarning holatini aniqlashga qaratilgan; ikkinchidan, tashqi audit, birinchi navbatda, korxona mijozlari hisoblangan iste'molchi, kreditor, soliq organlari va boshqa foydalanuvchilar manfaatlarini inobatga oladi. Ichki audit, birinchi navbatda, korxona boshqaruvi manfaatlariga qaratilgan bo'lib, samarali ichki audit tizimi tashqi auditga sarflanadigan xarajatlarni qisman kamaytirishga xizmat qiladi [9].

Keltirilgan ta'riflarga asosan, ichki audit xizmati tashkilotning ichki nazorat tizimini tashkil etuvchi tarkibiy elementlaridan biri deb hisoblanadi. Ichki audit xizmati ichki nazorat tizimining turli bo'g'inlari (elementlari) ustidan samarali nazoratni amalga oshirishga yordam berish uchun mo'ljallangan faoliyat sifatida e'tirof etilishi mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli tahlil, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida budget tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab, tegishli xulosalar shakllantirildi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarish hamda nazoratini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasidan, budget jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, budgetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda budget intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan budget qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko'rib chiqish belgilandi.

Aytish mumkinki, budget hamda budgetdan tashqari mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishning ichki nazorati ko'p jihatdan ichki audit tizimini samarali tashkil etishga bog'liq bo'ladi. Respublikamizda ichki audit xizmatini tashkil etishda xorijiy investor ishtirokidagi subyektlarda ularning ahamiyatini oshirish, har bir subyektda ichki audit xizmatining javobgarligini yanada oshirish, hamda xizmat tomonidan taqdim etiladigan yig'ma hisobot natijalari asosida kuzatuv kengashi tavsiyasiga ko'ra ijroiya organi faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish va ichki auditning mustaqilligi prinsipini yanada kuchaytirish lozim. Natijada, ichki auditorlarga e'tibor yanada oshadi, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'rganish natijalariga qiziqish uyg'onadi. Natijalarini umumlashtirib, budget tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatining asosiy yo'nalishlari shakllantirildi (1-rasm).



1-rasm. Budget tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini yo'nalishlari.<sup>1</sup>

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, ichki audit faoliyatini uch yo'nalishda olib borish maqsadga muvofiq. Bunda, birinchi navbatda, xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishni o'rganishdan boshlanadi va ular bo'yicha tegishli audit amallari bajariladi. Keyingi navbatda esa smetalar doirasida mablag'larni sarflanishi holati yuzasidan audit dalillari to'planadi va uchinchi navbatda budget tashkiloti zimmasiga yuklatilgan vazifani samarali bajarish holati o'rganiladi. Agar budget tashkiloti ta'lim muassasasi bo'lsa, ta'lim jarayonining amaldagi normativ hujjatlar talablari doirasida tashkil etilishi va faoliyat natijalari tahlil qilinadi.

Ichki audit xizmati hisobotining yakuniy qismida korxonaning ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga, shuningdek, likvidligiga umumiy baho berish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-sonli qarorida samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadga muvofiq (1-jadval).

<sup>1</sup> Илмий тадқиқот асосида муаллиф ишланмаси.

1-jadval. "O'zneftgazqazibchiqarish" AJning 2023-yildagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari bajarilishi tahlili<sup>2</sup>.

| №    | Ko'rsatkichlar                                                                       | Salmog'i, % | Prognoz ko'rsatkichlar | Haqiqatda | Foizda bajarilishi | SMK         |
|------|--------------------------------------------------------------------------------------|-------------|------------------------|-----------|--------------------|-------------|
|      | A                                                                                    | B           | C                      | D         | E                  | E x B / 100 |
| 1    | Foizlar, soliqlar va amortizatsiya chagirilgunga qadar foyda                         | 2           | 4 739 720              | 6 153 613 | 129,8              | 2,6         |
| 2    | Xarajatlarning daromadlarga nisbati koeffitsienti                                    | 2           | 0,9                    | 0,8       | 91,5               | 1,8         |
| 3    | Jalb qilingan kapital rentabelligi                                                   | 2           | 0,06                   | 0,08      | 136,7              | 2,7         |
| 4    | Xususiyl kapital rentabelligi                                                        | 2           | 0,2                    | 0,3       | 133,9              | 2,7         |
| 5    | Aksiyadorlik kapitali rentabelligi                                                   | 2           | 114,5                  | 128,2     | 111,9              | 2,2         |
| 6    | Aktivlar rentabelligi                                                                | 15          | -0,04760               | 0,02570   | 51,4               | 7,7         |
| 7    | Mutloq likvidlik koeffitsienti                                                       | 12          | 0,04147                | 0,02673   | 13,4               | 1,6         |
| 8    | Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti                                                  | 12          | 0,96438                | 1,74010   | 174,0              | 20,9        |
| 9    | Kreditorlik qarzlarning aylanuvchaligi, kunda                                        | 12          | 453                    | 392       | 115,4              | 13,9        |
| 10   | Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi, kunda                                        | 12          | 164                    | 131       | 125,8              | 15,1        |
| 11   | Qoplash koeffitsienti                                                                | 12          | 0,5                    | 0,5       | 38,9               | 4,7         |
| 12   | Dividend chiqishi koeffitsienti                                                      | 5           | 0,8                    | 0,5       | 69,6               | 3,5         |
| 13   | Debitorlik qarzlarning kamayish ko'rsatkichi (o'rnatilgan topshiriqqa nisbatan % da) | 10          | 2,0                    | 15,4      | 13,2               | 1,3         |
| JAMI |                                                                                      | 100         |                        |           |                    | 80,7        |

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, "O'zneftgazqazibchiqarish" AJning 2023-yildagi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari bajarilishi 80,7 foizni tashkil etadi, 19,3 foiz esa bajarilmagan.

Ichki auditorlarning qayd etishicha, ilk beshta koeffitsientni hisoblab chiqishda hisob-kitoblar "O'zbekneftgazqazibchiqarish" AJ ijro apparati ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilgan. Bizningcha, ushbu hisob-kitoblarni qayd etilmagan MHXSga muvofiq tuzilgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot asosida tuzish zarur. Jamiyat boshqarmasi apparatining 2023-yildagi faoliyati samaradorlikning muhim va qo'shimcha samaradorliklarini hisob-kitob qilish jarayonida asosiy ko'rsatkichlar 80,7 foizni, qo'shimcha ko'rsatkichlar esa 105,9 foizni, ya'ni o'rtachasi 93,3 foizni tashkil etadi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari "etarli darajada" bajarilishi "O'zbekneftgazqazibchiqarish" AJning ijro organi faoliyati samaradorligi ijobiy natija bilan belgilanadi.

Ichki audit xizmati tomonidan xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga baho berishda samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini aniqlash lozim va buning natijasida kuzatuv kengashi tomonidan subyekt rahbariyatining ish jarayonini baholash imkoniyati oshadi. Shuningdek, ichki audit xizmati mavjud va mavjud bo'lmagan korxonalarining faoliyatini o'rganish, ichki audit xizmati tashkil etilmagan subyektlarda ichki nazorat tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish uchun ichki audit xizmatini tuzish maqsadga muvofiq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit xizmati hisobotini tayyorlashda uni o'tkazish jarayonining ketma-ketlik bosqichlarini tuzish muhim hisoblanadi va uning shakli ishlab chiqildi. Ichki audit xizmatini tashkil

<sup>2</sup> Ilmий тадқиқот асосида муаллиф ишланмаси.



etishda muallif tomonidan taklif qilingan ichki auditni o'tkazish bosqichlarini qo'llash natijasida uni hujjatlash-tirish jarayonida ichki audit rejasi va dasturini o'z vaqtida tuzish, ichki audit xarajatlar smetasini tayyorlash, ichki audit xizmati xodimlarining lavozim yo'riqnomasini ishlab chiqish, kunlik ish jarayonlarini amalga oshirish, ichki audit xizmati hisobotini tuzish hamda kuzatuv kengashiga taqdim etishda ketma-ketlik asosida bajarilishi ta'minlanadi.

Ichki audit xizmatining xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi va uni aniqlash uslubi yaratildi hamda amaliyotga qo'llash uchun tavsiya etildi. Buning natijasida kuzatuv kengashi tomonidan ichki auditorlar ish natijalarini baholash va nazorat qilish imkoniyati yanada oshadi.

Ichki audit standartlari respublikamizda ichki audit sohasini rivojlantirish uchun asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Buning natijasida ichki auditorlar tomonidan ichki audit standartlarining keng qo'llanilishi amaliyotdagi muammolarning o'z vaqtida hal etish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги ПФ-5635-сонли “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4168749>
2. А.С. Мухина. Становление и развитие внутреннего аудита // Образование. Наука. Научные кадры. –2013. –№4. –С. 151-156.
3. Подольский В.И., Савина А.А., Сотникова Л.В. Международные и внутрифирменные стандарты аудиторской деятельности: учебное пособие. М.: Вузовский учебник: ИНФРА-М, 2010.
4. Литвин Д.В., Богданова Е.П., Михеева Л.В. Основы общего аудита. –М.: МаркетДС, 2010.
5. Евдокимова А.В. ва Пашкина И.Н. Внутренний аудит и контроль финансово-хозяйственной деятельности организации: практическое пособие. М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков И.К.”, 2009.
6. В.В. Бурцев. Внутренний аудит компании: вопросы организации и управления. Финансовый менеджмент. –2003. – №4. – [www.dis.ru/fm](http://www.dis.ru/fm).
7. Богомолова А.М. и др. Внутренний аудит. Организация и методика проведения. – М.: “Экзамен”, 1999.
8. Маматов З.Т. Аудит. Ўқув қўлланма. – Т.: “Фан ва технология”, 2007.
9. Каримов А.А. Корпоратив бошқарув тизимида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. Монография. – Т.: Иқтисод-Молия, 2008. – 152 б.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Shahzod Avilqulov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

